

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi
№ B 60530700
2024 yil "26" 06



"TASDIQLAYMAN"
Termiz davlat universiteti
qo'lyozmali bo'yicha prorektor
prof. R. To'rayev

2024 yil "26" 06

TUPROQ GEOGRAFIYASI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	500 000	– Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lim sohasi:	530 000	– Fizika va tabiiy fanlar
Ta'lim yo'nalishi:	60530700	– Tuproqshunoslik

Termiz-2024

Fan/modul kodi TGGB308		O'quv yili 2024-2025	Semestr 5	ECTS - Kreditlar 8	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi darssoatlari 6	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim(soat)	Jami yuklama(soat)
	Tuproq geografiyasi		90	150	240

I.FANNING MAZMUNI

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda horij tajribasi asosida tuproqlarni geografik tarqalishi qonuniyatlari va ilmiy asoslarini o'rgatish; O'zbekiston va dunyo tuproq qoplami tavsifi; turli tuproq-iqlim mintaqalarining tuproqlari, O'zbekiston va dunyo yer resurslari, ulardan unumli foydalanish, tuproqlarni muhofaza qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - talabalarni tuproqlarni geografik tarqalish qonuniyatlari; keng tarqalgan tuproqlarning genetik xususiyatlari; tuproq qoplami tuzilishining xududiy xususiyatlari; tuproqlardan xo'jalik foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari; tuproqlarni geografik tarqalishidagi omillar; O'zbekiston tuproqlarining geografiyasi; dunyo tuproq qoplami; yer resurslari va tuproqlarni muhofaza qilish kabilar bilan zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida xulosalar chiqarishni o'rgatishdan iborat.

II. ASOSIY NAZARIY QISM (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: (THEMES)

1-mavzu. Kirish. Fanning rivojlanish tarixi, tuproq geografiyasi va sistemaikasi fanining o'rganish ahamiyati, fanning maqsad va vazifasi.

Tuproq geografiyasi faniga kirish. Tuproq geografiyasi fanining maqsadi, tuproq geografiyasi fanining vazifasi. Tuproq geografiyasi fanining rivojlanish tarixi

2-mavzu. Tuproqning geografik tarqalish qonuniyatlari, tuproq geografik rayonlashtirish.

Tuproq-bioiqlim viloyatlarining tuproq qoplami. Tuproq paydo bo'lishi va tuproq geografiyasining qonuniyatlari. Tuproq-geografik rayonlashtirishning maqsadi.

3-mavzu. Tuproqning geografik tarqalishida iqlimning roli

Iqlim, tuproqning geografik tarqalishi. Tuproqning issiqlik rejimi. Tuproqning issiqlik va suv rejimlari tavsifi. Iqlimi

4-mavzu. Tuproqning geografik tarqalishida o'simliklarning roli, moddalar biologik aylanishining geografik qonuniyatlari.

Turli tuproq-iqlim sharoitlarida tuproqlarning tarqalishida tabiiy omillarning roli va ahamiyati. Tuproqlarning geografik tarqalishida iqlim omilining roli. O'simlik, hayvonot olami va mikroorganizmlar tuproqlarning geografik tarqalishida omil sifatida. Tuproqlarning geografik tarqalishida tuproq hosil qiluvchi omillarning roli. Rel'efning tuproqlarning geografik tarqalishida omil sifatidagi ahamiyati.

5-mavzu. Tuproqning geografik tarqalishida bakteriyalarning roli

Bakteriyalarning roli. Tuproq bakteriyalari, Avtotrof bakteriyalar, Geterotrof bakteriyalar. Nitrifikasiya, Sulfifikasiya. Ammonifikasiya.

6-mavzu. Tuproqning geografik tarqalishida reliefning roli

Tayga o'rmon boreal mintaqasining podzol alfaqumusli va gleyli- torfli tuproqlarining paydo bo'lishi, geografik tarqalishi, o'simlik va hayvonot olami.

7-mavzu. Tuproqning geografik tarqalishida zamburug'lar, aktinomitsitlar, suv o'tlari, lishayniklar, hayvonot olamining roli

Tuproqning geografik tarqalishida zamburug'larning roli. Tuproqning geografik tarqalishida aktinomitsitlar, suv o'tlari, lishayniklarning roli. Tuproqning geografik tarqalishida hayvonot olamining roli. Tuproqda mikroorgnauzmlarning geografik tarqalishi va miqdori

8- Mavzu; Dunyo tuproqlarining geografik tarqalishi

Qutb mintaqasi tuproqlari ,Borreal mintaqasi tuproqlari ,Subborial mintaqasi tuproqlari Subtropik mintaqasi tuproqlari, Tropik mintaqasi tuproqlari

9-mavzu. Tuproqlarning geografik tarqalishida insoning roli.

Insonning tuproqqa ta'siri. Insonning tabiatga ta'siri. Tuproq unumdorligini oshirish. Geografik tarqalishi, o'simlik va hayvonot olami.

10-mavzu. Tuproqlarning geografik tarqalishida tuproq hosil qiluvchi jinslarning roli.

Tuproq unumdorligini oshirish. Geografik tarqalishi, o'simlik va hayvonot olami.

11-mavzu. Tuproqlarning intrazonal va provintsial tarqalishi

Tuproqlarning intrazonal tarqalishi jarayoni. Tuproqlarning provintsial yoki fatsial tarqalishi. Tuproq zonalarida kengliklarida bioiqlim. Tuproqlarning geografik rayonlashtirish printsiplari.

12-mavzu. O'zbekiston Respublikasining tuproq qoplami

Och-qo'ng'ir tuproqlar, Cho'l – qumloq tuproqlar, Taqir tuproqlar, Taqirlar, O'tloqi tuproqlar, Tuproq - iqlim kengliklari. Cho'l zonasining o'tloq–vohaga oid va botqoq vohaga oid tuproqlari, bo'z tuproqlar mintaqasi esa taqir– vohaga oid, bo'z –vohaga oid, o'tloqi– vohaga oid, botqoq–vohaga oid tuproqlari.

13-mavzu Tuproqning rivojlanishi va evolyutsiyasi

Tuproqning ekologenetik tasnifi. Tuproqning morfogenetik tasnifi. Tuproqlarning rivojlanish fazalari. Qoldiqli xossa. Tuproqni evolyutsion genetik tavsifi. Tuproqni tarixiy genetik tavsifi

14-mavzu. Tuproqlarning morfologiyasi, tarkibi, tuzilmasi va xossalari

Tuproq paydo bo'lishi va tuproq geografiyasining qonuniyatlari. Tuproq-geografik rayonlashtirishning maqsadi. Tuproq iqlim mintaqasi.

15-mavzu. Dunyo yer resurslari va muhofazasi

Dunyo yer resurslari tushunchasi, yer resurslari qishloq xo'jaligidagi ahamiyati

16-mavzu. O'zbekiston yer resurslari va muhofazasi

O'zbekiston yer resurslari, O'rtacha dasht zona, Subtropik dasht zona, Subtropik tog' oldi, tog' etagi dasht zonasi, Issiq va o'rta iqlimda o'rta Osiyo tog'li zona

17-Mavzu Cho'l zonasining tuproqlarining geografik tarqalishi

Cho'l zonasi tuproqlari, ularning geografik rayonlashgani jihatlari.

18-Mavzu. Tog' tuproqlarining geografik tarqalishi

O'zbekiston tog' mintaqalarining tabiiy-iqlim, rel'ef sharoitlarining murakkabligi va tuproqlarining xilma-xil bo'lishi. Tog' tuproqlarini tarqalishii, tog' sistemasining o'ziga xos qonunlari. Tog' viloyatlarida yon bag'irlarning ekspozitsiyasi va qiyalik xususiyatlari.

19-mavzu. Dunyo tuproq xaritasi va kartogrammasi.

Dunyoning tuproq xaritasi. Dunyoning tuproq-bioiqlim mintaqalari. Dunyo tuproqlarining geografik tarqalishida ahamiyat kasb etuvchi omillar. Dunyo tuproqlarining geografik tarqalish qonuniyatlari.

20-mavzu. Surxondaryo tuproqlarining geografik tarqalishi

Surxondaryo viloyatining reliefi, iqlimi va tuproq xosil bo'lish sharoitlari, Surxondaryo vohasi tuproqlari. Surxon – Sherobod vohasining cho'l zonasi tuproqlari Surxondaryo da gorizontal va vertikal zonallik qonuniyatlari asosida tarqalgan tuproqlar.

21-mavzu. Surxondaryo tuproqlarining agroekologik muammolari

Surxondaryo da gorizontal va vertikal zonallik qonuniyatlari asosida tarqalgan tuproqlar. Bo'z tuproqlar zonasi tuproqlarining geografik o'rni.

22-mavzu. Tuproq ekologiyasi.

Tuproqning shamol va suv eroziyasi, Qishloq xo'jaligida kimyoviy mineral o'g'itlar va kimyoviy

zaharli moddalardan bir tomonlama foydalanish; Sanoat ishlab chiqarishi va transport vositalari chiqindilari bilan tuproqning tez ifloslanib borayotganligi

III. AMALIY MASHG'ULOTLARI BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi

1. Tuproqshunoslik va tuproqlar geografiyasiga oid tadqiqotlar tarixining asosiy davrlari
2. Tuproqning kimyoviy tarkibi, fizik xossalari va tuproq tuzilmasi
3. Tuproq hosil qiluvchi tog'-ona jinslarni o'rganish
4. Tuproq hosil bo'lishining biologik omillari va tuproqning organik qismi
5. Tuproq hosil bo'lishida iqlimning o'rni
6. Tuproq hosil bo'lishida relyefning ahamiyati
7. Tabiat va jamiyat hayotida tuproqning ahamiyati
8. Tropik mintaqa tuproqlarini o'rganish
9. O'rmon va o'rmon dasht, dasht, chala cho'l va cho'l tuproqlari
10. Osiyo mamlakatlarining tuproq bioiqlim mintaqalari, tabiiy sharoiti va viloyatlarini o'rganish
11. Boreal zonaning tayga-o'rmon zonasining tuproq qoplami
12. O'zbekiston tuproqlari geografiyasi
13. Tuproq boniteti. Tuproqlar tarqalishini xaritalashtirish

Amaliy mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor – o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. SEMINAR MASHG'ULOTLARI BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

Mavzu nomi

- 1 Tuproq geografiyasi fanining maqsadi va vazifasi, rivojlanish tarixi
- 2 Geografik zonallik qonuniyati va tuproq-geografik rayonlashtirish
- 3 Tuproq hosil bo'lishida iqlim va gidrologik omillarning o'rni.
- 4 Mikroorganizmlar va tuproqlar geografiyasi
- 5 Tuproqdagi sharoitlarning mikrobiologik jarayonlar jadallogiga ta'siri
- 6 Tuproq organik qismining kelib chiqishi, tarkibi va hossalari
- 7 Tog' tuproqlarining geografik tarqalishi
- 8 Tuproqlarning morfologik belgilari.
- 9 Cho'l mintaqasidagi gidromorf tuproqlar, tarqalishi tabiiy sharoiti, iqlimi, o'simligi, geomorfologik tuzilishi, tasnifi, tarkibi, xususiyatlari. Qishloq xo'jaligida foydalanish va unumdorligini oshirish choralari.
- 10 Tuproq muhofazasi

V. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

Mavzu nomi

- 1 Tuproq geografiyasi fanining o'rganilish tarixi.
- 2 Tuproqshunos olimlarning tuproq geografiyasi sohasidagi izlanishlari
- 3 O'zbekiston tuproqlarining tarqalish qonuniyatlari va evolyutsiyasi.
- 4 Tuproq geografiyasi yo'nalishida mamlakatimizda erishilgan yangiliklar.
- 5 Dunyo tuproqlari tarqalish qonuniyatlari.
- 6 Tuproqlarning geografik tarqalishida iqlimning roli
- 7 Tuproq geografiyasi sohasida xorijiy mamlakatlardagi yangi yo'nalish va tarmoqlar.
- 8 Qit'alarda tarqalgan asosiy tuproqlarning bir-biridan farqi.
- 9 Tuproqning geografik tarqalish qonuniyatlari, tuproq geografik rayonlashtirish
- 10 Tuproqning geografik tarqalishida iqlimning roli
- 11 Tuproqning geografik tarqalishida o'simliklarning roli, moddalar biologik aylanishining geografik qonuniyatlari
- 12 Tuproqning geografik tarqalishida bakteriyalarning roli
- 13 Tuproqning geografik tarqalishida zamburug'lar, aktinomitsitlar, suv o'tlari, lishayniklar, hayvonot olami va insonning roli
- 14 Tuproqning geografik tarqalishida relefning va tuproq hosil qiluvchi jinslarning roli
- 15 Tuproqning rivojlanishi va evolyutsiyasi
- 16 Tuproqlarning intrazonal va provintsial tarqalishi
- 17 Dunyo tuproqlarining geografik tarqalishi
- 18 O'zbekiston Respublikasining tuproq qoplami
- 19 Surxondaryo tuproqlarining geografik tarqalishi
- 20 Tuproqning geografik tarqalish qonuniyatlari, tuproq geografik rayonlashtirish
- 21 Tuproqlarning geografik tarqalishida o'simlikning roli, moddalar biologik aylanishining geografik qonuniyatlari
- 22 Moddalar biologik aylanishining geografik qonuniyatlari
- 23 Tuproqlarning geografik tarqalishida bakteriyalarning roli
- 24 Tuproqning tabiat va inson hayotidagi ahamiyati
- 25 O'zbekiston Respublikasining tuproq qoplami
- 26 Tuproqlarning geografik tarqalishida insonning roli
- 27 Tuproqlar geografik tarqalishining umumiy qonuniyatlari
- 28 Tuproq – geografik rayonlashtirish
- 29 Tuproqning rivojlanishi va evolyutsiyasi.
- 30 Tuproqlarning intrazonal va provintsial tarqalishi
- 31 Dunyo tuproqlarining geografik tarqalishi.
- 32 O'zbekiston tuproqlarining geografik tarqalishi
- 33 Dunyo tuproq bioiqlim mintaqalari va viloyatlari
- 34 O'zbekiston tuproq qoplami
- 35 Dunyo yer resurslari va muhofazasi
- 36 O'zbekiston yer resurslari va muhofazasi, yer resurslaridan foydalanishning ekologik muammolari.
- 37 O'zbekistonda yer va yer resurslaridan foydalanishning xuquqiy asoslari
- 38 Tuproqlarning geografik tarqalishida zamburug'lar, aktinomitsitlar, suv o'tlari, lishayniklarning roli.

VI. TA'LIM NATIJALARI KASBIY KOMPETENSIYALARI

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- tuproqlarni geografik tarqalishi, unga ta'sir etuvchi omillar, qonuniyatlar va ilmiy asoslar;

O'zbekiston respublikasi tuproq qoplami; dunyo tuproq qoplami; yer resurslari va muhofazasi to'g'risida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi*;

• tuproqlar geografik tarqalishining umumiy qonuniyatlari; gorizont va vertikal zonallik qonuniyatlar; dunyo qit'alarining tuproq qoplami; O'zbekiston yer resurslari; tuproqlarni tasniflash va yer resurslarini muhofaza qilish *ko'nikmalariga ega bo'lishi*;

- fanining ilmiy asoslari; turli tuproq-bioiqlim sharoitlarida tuproqlarning tarqalishida tabiiy omillarning roli va ahamiyati; O'zbekistonda gorizont va vertikal zonallik qonuniyatlari asosida tarqalgan tuproqlar; dunyoning tuproq xaritasini; dunyoning tuproq-bioiqlim mintaqalari; dunyo tuproqlarining geografik tarqalishimalakasiga *ega bo'lishi kerak*.

VII. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

VII. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllaridaberilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. M.J.Mahmudova.Tuproqlar geografiyasi fanidan (o'quv-uslubiy majmua) Namangan-2023
2. Tuproq geografiyasi va sistematikasi" fanidan o.,quv - uslubiy majmua (Amaliy mashg'ulotlari) – 2018
3. M.Saidov., X.Zokirov. Tuproqshunoslik va tuproqlar geografiyasi. Termiz 2021
4. Alisher Xodjimatomov, Shakarbek Xolmurodov Tuproqlar geografiyasi Toshkent-2018
5. B.S.Kamilov, G.S.Sodiqova "Tuproqshunoslik va geologiya asoslari" Toshkent –2019

y

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. 488-b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 11 iyuldagi PQ-4391-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 — 2023 yillarda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlar tayyorlash

tizimini tubdantakomillashtirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida" gi 2019 yil 17 iyundagi PQ-4358-son qarori.

INTERNET SAYTLARI:

6. www.lib.tersu.uz
7. www.agriculture.uz.
8. www.nuu.uz
9. www.nature.uz
10. www.ziyonet.uz
11. www.wikipedia.org

Mazkur fanning o'quv dasturi Termiz davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 2024-yil 26-iyundagi 11-sonli yig'ilish bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan (modul) uchun ma'sul:

- | | | |
|---------------|---|---|
| Abramatov M.. | - | TerDU, "Ekologiya va tuproqshunoslik" kafedrasini mudiri,
biologiya fanlari nomzodi, dotsent |
| Saidov M. | | TerDU, Ekologiya va tuproqshunoslik kafedrasini dotsenti |
| Zayirova D | | TerDU, Ekologiya va tuproqshunoslik kafedrasini o'qituvchisi |

Taqrizchi:

- | | |
|------------|---|
| X.Zokirov. | TerDU, Ekologiya va tuproqshunoslik kafedrasini professor |
|------------|---|

